

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rne.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot" da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abdovakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abdovohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva , Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rne va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari.....	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich, PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar.....	125
Ermatov Musojalil Komilovich, kafedra dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich, katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach.....	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi, asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna, PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari.....	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinova, PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna, Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li, tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon, PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari.....	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida.....	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna, i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li, dekan o'rinbosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich, dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich, magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni.....	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li, mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна, PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov, kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich, i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna, kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna, kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtrish ko'rsatkichlari	242
Berdiyev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya outsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbonova Shaxrinnoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jaloliddinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжахон Суюнович , ассистент кафедры	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муютдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках	326
Тажимуратов Умид Рузमतovich , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойбергенович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузमत Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан	339
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития.....	355
Турсун Мухитович Ахмедов , и. ф. д., проф.; Гавхар Рустамовна Хидирова , докторант, и. ф. ф. д., доц.	
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari.....	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



DAVLAT TOMONIDAN QISHLOQ XO'JALIGINI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti dotsenti v. b., PhD



Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ilg'or xorij tajribalarini qo'llash va hozirgi kunda olib borilayotgan soliq islohotlari mavzusida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi korxonalari, soliq imtiyozlari, soliqqa tortish mexanizmlari.

Abstract: This article describes the improvement of the system of financial support for agriculture by the State, the use of advanced foreign experiences, and the current tax reforms.

Key words: agricultural enterprises, tax benefits, taxation mechanisms.

Аннотация: В данной статье рассказывается о совершенствовании системы финансовой поддержки сельского хозяйства со стороны государства, использовании передового зарубежного опыта и проводимых налоговых реформ.

Ключевые слова: сельскохозяйственные предприятия, налоговые льготы, механизмы налогообложения.

Jahonda soliqlar vositasida qishloq xo'jaligi sohalarini bevosita va bilvosita usullar asosida, jumladan soliq imtiyozlarini qo'llash, kredit va sug'urta tizimi orqali rag'batlantirish, narxlarni shakllantirish mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy dastaklar turlichadir. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirishning keng tarqalgan usullari sifatida ular faoliyatini soliqlar orqali qo'llab-quvvatlashni keltirish mumkin. Jahonda qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqlar vositasida rag'batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan qishloq xo'jaligida manzilli soliq imtiyozlarini qo'llash, dehqonchilikning tabiiy iqlim sharoitiga bog'liqligidan kelib chiqib ekinlar hosildorligini oshirish va chorvachilikda tannarxni pasaytirish orqali mahsuldorlikni ko'paytirishni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish hamda qishloq xo'jaligi sohasida soliq



yukini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy asoslarda tashkil qilish, resurslardan, jumladan yer fondidan samarali foydalanish va bunda soliq mexanizmi imkoniyatidan maqsadli foydalashishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada "fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish" vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini soliq mexanizmi asosida rag'batlantirish, istiqbolli va serdarmad sohalar bo'lgan bog'lar, tokzorlar, tutzorlar barpo etishda soliq imtiyozlarini joriy etish, foydalanilayotgan yerlar unumdorligi va faoliyat natijadorligini soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasiining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 27-iyundagi PF-5755-son "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

2020-yildan boshlab respublikamizda soliq sohasida tub o'zgarishlar yuz berishi va yangi tahrirdagi Soliq kodeksining joriy etilishi natijasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i o'rniiga faoliyat turidan hamda foydalanish obyektlaridan kelib chiqqan holda umumbelgilangan soliqlarni to'lash tartibi belgilandi. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha yer solig'i stavkalari yagona yer solig'i stavkasi singari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining me'yoriy qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa qat'iy stavkada va yer maydonining bonitet balidan kelib chiqib hisoblanishi belgilandi. Shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalari 2019-yilning 1-oktyabridan yil davomida 1 mlrd. so'mdan ortiq pul aylanmasi yoki 50 gektardan ortiq qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoniga ega bo'lgan taqdirda qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa umumbelgilangan soliqlarni to'lash tartibi joriy etildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi korxonalari bugungi kunda hech qanday to'siqsiz o'zi yetishtirgan meva-sabzavotlarini yoki ularni qayta ishlash mahsulotlarini chetga eksport qilishi mumkin. Bunda, eksport realizatsiyasi oborotiga qo'shilgan qiymat solig'ini nol stavkada hisoblanib, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ortiqcha to'lov (manfiy qoldiq) summasi hosil bo'lgan taqdirda, bu summani davlat byudjetidan qaytarib olish imkoniyati yaratildi. Yillik pul aylanmasi 1 mlrd. so'mgacha yoki sug'oriladigan yer maydoni 50 gektargacha bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar aylanmadan olinadigan soliq va boshqa soliqlarni to'lash tartibi belgilandi.

Qishloq xo'jaligini soliqlar vositasida rag'batlantirishning rivojlangan davlatlar tajribalari bilan bir qatorda rivojlanayotgan hamda MDH davlatlari tajribalarini mamlakatimiz amaliyotida foydalanish tendensiyalarini ko'radigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'yicha soliq solish darajasining pasayishiga, asosan ikkita yo'nalish orqali erishiladi. Birinchi holatda – bu soliq stavkalarini bevosita pasaytirish, bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning foydasiga nisbatan hisoblanganda soliq yukining anchagina kamayishiga olib keladi. Ikkinchi holatda, soliq solishning odatdagi stavkalari bilan bir vaqtda soliq imtiyozlari, shuningdek, tezlashtirilgan amortizatsiya usullarini qo'llash imkoniyatlarini taqdim etish orqali xo'jalik subyektlari ixtiyorida qoladigan foydani oshirish nazarda tutiladi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligini soliqqa tortish tizimi asosan ikkinchi jahon urushdan keyingi davrda har tomonlama keng shakllandi. Bu davrda tarmoqning urushdan keyingi davrga xos muhim tavsiflari: tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi va mamlakatdagi bandlik tuzilmasidagi salmog'i ancha yuqoriligi, qishloq xo'jaligi daromadlarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bir xil darajada saqlab turish va tenglashtirish zarurligi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash zarurligi kabi tavsiflarga asosiy e'tibor qaratildi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda soliq islohotlari amalga oshirildi, soliq qonunchiligini mamlakatlarning o'sha paytdagi iqtisodiy rivojlanish darajasiga moslashtirishga qaratilgan edi. Bu islohotlar agrar sektorni ham qamrab oldi. Chunonchi, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan to'g'ri soliqlar bo'yicha soliq stavkalari ancha kamaytirildi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda fermerlarga nisbatan soliq preferensiyalari amal qiladi. Bu yer va undagi qurilishlarni baholashning alohida usullari qo'llanilishi, soliq solish darajasining pastligi, tuproqni qayta ishlashga mo'ljallangan mashina va uskunalar qiymatining soliq solinadigan summalardan chiqarib tashlanishi, soliqlar bo'yicha chegirmalar va hattoki boshqa soliqlarni to'lash uchun grantlar berilishi bilan ifodalanadi. Fermerlar kapitalini texnologik yangiliklarga investitsiyalashni rag'batlantirish uchun ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida investitsiyalarni ko'paytirishga soliq chegirmalari, investitsiyaning ko'paytirilgan summasiga to'g'ri keladigan soliq to'lovlarning byudjetdan qoplab berilishi va hokazolar nazarda tutilgan. Fermer, agar davlat yoki mintaqaviy agrar dasturlar doirasiga kiradigan yangiliklarni o'zlashtirsa, imtiyozli soliq solishning birorta turidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qishloq xo'jaligiga



qulay sharoitlar yaratish siyosat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, saylov va hukumat tarkibining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun soliq imtiyozlari agrar sektorga subsidiya ajratishning muhim shakli bo'lib xizmat qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning soliqlar tarkibi asosan daromad solig'i va korporativ soliq, QQS, yer solig'ini o'z ichiga oladi. Daromad solig'i milliy soliqlar guruhiga kiradi. Uni to'lash tartibi va stavkalarini barcha mamlakatlarda federal qonunchilik belgilaydi. Soliq bazasi soliq solish subyekti olgan sof daromad (ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromad bilan shu daromadni olishga bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farq) sifatida belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi chet el tajribasini o'rganish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi, chunki chet el amaliyotining asosiy yutuqlaridan foydalanish tegishli tarmoqda soliqlarni to'lash mexanizmini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Shu bois, xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligini soliqqa tortish xususiyatlarini tahlil qilish, qo'llaniladigan yondashuvlar uchun aniq motivatsiya xos ekanligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini soliqqa tortish imtiyozli tusga egaligi bilan ajralib turadi. Bular maxsus soliq rejimlarining amal qilishida hamda soliq imtiyozlari berilishida namoyon bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish qoidalari xilma-xil imtiyozlarda aks etadi. Umumiy imtiyozlarga quyidagilar kiradi:

- kichik fermerlarni soliq to'lashdan ozod qilish;
- naqd pul asosida hisob-kitob qilishga imkon berish;
- soliqqa tortiladigan daromadlar hisob-kitoblarini taqdim etish;
- yillik yer va mol-mulk solig'ini kamaytirish;
- yerlarni avlodlar o'rtasida o'tkazish bilan bog'liq soliqlarni kamaytirish.

MDH mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlashning eng muhim choralaridan biri qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun umumiy soliq tizimi doirasidagi soliq imtiyozlarining taqdim etilishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun soliq tizimlarini joriy etish hisoblanadi. Jumladan, hozirgi kunda Belarus Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun yagona soliq, Qozog'iston Respublikasida dehqon xo'jaliklari yoki fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun maxsus soliq rejimi, Tojikiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimi, O'zbekiston Respublikasida yagona yer solig'i (2020-yil 1-yanvardan qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar umumbelgilangan yoki aylanmadan soliq to'lovchilari hisoblanadi) va Ukrainada qat'iy belgilangan qishloq xo'jalik solig'i kabi maxsus soliq rejimlari qo'llaniladi. Lekin Ozarbayjon, Armaniston, Qirg'iziston, Moldaviya va Turkmaniston davlatlarining soliq qonunchiligida bunday maxsus soliq rejimlari ko'zda tutilgan emas. Rossiyada bo'lgani kabi, MDHning ayrim mamlakatlarida ham maxsus soliq rejimi qo'llanishida o'z qishloq xo'jaligi mahsulotlari va uni qayta ishlash mahsulotlarini sotishdan tushgan daromadning umumiy daromaddagi ulushiga bo'lgan talab bajarilishi lozim. Jumladan, Belorussiya Respublikasida kamida 50%; Qozog'iston Respublikasida yillik daromadning kamida 90%. Bundan tashqari, Qozog'iston, Tojikiston kabi mamlakatlarda yerga egalik qilish yoki yerdan foydalanish huquqini mavjudligiga qarab, yengilroq soliq yuki bo'lgan soliq rejimini qo'llash uchun qo'shimcha shartlar ko'zda tutilgan. Shunday qilib, bu mamlakatlarda, yagona soliq renta daromadiga qaratilgan. Yuqoridagilarning barchasidan shunday xulosa qilish mumkinki, MDH mamlakatlarining barchasida Rossiya kabi bir qator eng yirik soliq to'lovchilar bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun maxsus soliq rejimini qo'llash huquqi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston–2030" strategiyasi farmoni doirasida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish doirasida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish.
- Qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish.
- Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish.
- Hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45–50 sentnerga, g'alla bo'yicha – 80–85 sentnerga yetkazish.
- Qo'shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashtirish va mazkur yerlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish.
- Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash.
- Respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish.
- Yer munosabatlarini isloh qilish doirasida yer maydonlari ijara huquqini garovga qo'yish mexanizmini joriy qilish.



- Ko'chatchilik xo'jaliklari reyestrini yuritish va ko'chatlarni sertifikatlash tizimini joriy qilish. Har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashkil qilish.
- Dehqon va fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga barcha subsidiyalarni yagona "Agrosubsidiya" platformasi orqali "bir qadam" tamoyili asosida taqdim etish.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvani sug'urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etish va unga 100 million dollarni jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish.
- Chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta'minlash.
- Pillachilik sohasida klaster tizimi asosida 105 ming gektar yangi tutzorlarni barpo qilish va 1 milliondan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan maqsadli rivojlantirish siyosati samarali moliyaviy rag'batlantirish siyosati bilan uyg'unlashsa mazkur sohada yuqori natijalarga erishishga asos bo'ladi. Dunyoning turli mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlar turlichadir. Lekin umumiy jihatdan olganda jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligiga o'ziga xos yondashuv mavjud bo'lib, aksariyat hollarda bu yondashuvlar moliyaviy yengilliklar, imtiyozlar berishni ko'zda tutadi. Qishloq xo'jaligi davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirishning soliq imtiyozlarini qo'llash, kredit va sug'urta tizimi orqali rag'batlantirish, tabaqalashgan narxlarni kompensatsiyalash mexanizmi kabi usullar eng keng tarqalgan usullar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risi"dagi Farmoni. – Toshkent, "Xalq so'zi", 2023-yil 23-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF–4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5755-sonli Farmoni. 2019-yil 27-iyun.
4. Toshqulov A. X. Qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalari (Surxondaryo viloyati misolida). I. f. d (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. 2021. – 79-b.
5. Анализ мировых тенденций государственной поддержки сельского хозяйства. <http://www.eurasiancommission.org>.
6. Горелова И. В., Долгова О. Ю. (2015) Налогообложение сельскохозяйственного товаропроизводителя в контексте реализации стратегии импортозамещения // Налоги и финансовое право. 2015. № 12. – С. 129–135.
7. <https://data.oecd.org>
8. <http://ej.kubagro.ru>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.



"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.